

QADIMGI XITOIDA SIN IMPERIYASI

Habibullayev Fayozbek G'ofur o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Maskur maqola qadimgi Xitoy davlatidagi yana bir sulola yani Sin imperiyasi haqida malumot beradi. Bunda o'sha davrda yuz bergan voqeyalar xududiy chegaralari va islohatlar haqida malumot beradi. Ushbu maqola Sin sulolasitarixini ilmiy va taxliliy asosda yoritadi.

Kalit so'zlar: Sin imperiyasi, qadimgi Xitoy, Sin Shu Xuandi, Shan-Yan, Chu, Vey, Si Yan, Chjou, Buyuk kanal, Buyuk Xitoy devori, Xun, Min Tanyan, Devor Lyodun

KIRISH

Xitoy silviziatsiyasi insoniyat tarixida eng qadimgi va rivojlangan madaniyatlardan biridir. Xitoyning uzoq tarixida turli sulolalar almashgan bo'lib, ular orasida SIN(QIN) imperiyasi alohida o'rin egallaydi. Xitoy tarixida birinchi markazlashgan imperiya sifatida tanilgan. U eramizdan avvalgi 221-yilda hukumdor SIN SHI Xuang-di tomonidan tashkil topgan. Bu davlatning tashkil topishi Xitoy hududida yangi davrni boshlab beradi. Bu davrda markazlashgan davlat, yagona qonun, pul birligi, yozuv tizimi va o'lchov birliklari joriy etilishi Xitoyni iqtisodiy va siyosiy jihatdan birlashtiradi.

ASOSIY QISM

Adovatlashuvchi podsholiklar davrida olib borilgan urushlar xo'jalikning hamma sohasiga katta zarar, mamlakat aholisi, xususan mehnatgashlar boshiga og'ir kulfatlar yog'adi. Mamlakadagi o'zaro urushlar va tushkinlikdan Xitoy atrofidagi yashagan ko'chmanchi qabilalar foydalangan. Mil. avv. IV asrda birinchi yarimida xitoyni yagona bir davlatga birlashtirish g'oyasi tug'ilgan. Xitoydagi CHU va SIN podsholiklari yagona davlat tuzish uchun kurasha boshlaganlar. Bu kurashda Sin podsholigi g'olib chiqan. Sin podsholigi Xuanxe daryosining irmoqlaridan biri Vey daryosi havzasida joylashgan bo'lib poytaxt Sanyan shaxri shu daryoning chap sohilida joylashgan. Mil. avv. IV asr o'ralariga kelib, podsho Sao-chun davrida (Mil. avv. 361-338-yillarda) Sin podsholigi bir muncha kuchayadi. Sin imperiyasi yuksalishi hukumdor Shan-Yan foyati bilan bog'liq. Shan Yan Xitoy tarixidagi mashhur legalizm(fa-tszya) ta'limotining amaliy taafdori bo'lgan. U qat'iy qonunlar, markazlashgan boshqaruv va qat'iy intizom asosida davlatni mustaxkamlashga erishgan. Shan Yan davrida Sin podsholigi harbiy va siyosiy jihatdan kuchaygan. Shan-Yang podsholigi davrida islohatlar rejasini tuzib chiqadi. Islohatga ko'ra, yerni istagancha hususiy mulk qilib olish hosildan olinadigan soliq yer solig'i bilan almashtirilgan. Undan tashqari yerni erkin oldi soti qilishga ruxsat berilgan. Davlatni

boshqarishda ham muhim o'zgarishlar va islohatlar olib borgan. Butun podsholikni 36 viloyatga bo'lib, uni podsho tayin etgan amaldorlar iroda etgan. Eski amaldorlar ishlaridan olinib mamlakat kuchli nazorat o'rnatilgan. Podsho mamlakatdagi morif ishlariga ham kata etibor qaratgan. Mamlakatda podsho maktablari tashkil etilgan. Bu islohat natijalari podsholikni ancha kuchaytirgan ammo Shan-Yan islohatlari eski zadodonlarga, konfutsiy oqimi tarafdorlariga yoqmagan. Podsho Sao-Chun vafotidan so'ng islohatchi Shan-Yan qatil etilgan.

Sin podsholigi kuchayishi. Mil. avv. 246-yili Sin podsholigi taxtiga 13 yoshli In Chjen (mil. avv. 246-210) o'tirdi. U qo'shni davlatlarni o'ziga qo'shib olish uchun katta tayorgarlik ko'rdi. Qo'shin safi musaxxamlangach mil. avv. 230-yilda Xan podsholigi qo'shinlariga qat'iy zarba berib uni bosib oladi. Mil. avv. 228-221-yillarda olib borilgan shidatli, g'olibona urushlar nsijasida Sharqiy Xitoydagi Chjao, Vey, Chu, Si, Yan podsholiklari qo'shinlari tor-mol keltiriladi. Mil. avv. 221-yilda yuqorida nomlari keltirilgan davlatlar qo'shib olingach, Sharqiy Xitoyni birlashtirish jarayoni nihoyasiga yetadidi. Shu tariqa Xitoyda Sin davlati ashkil topadi. In Chjen saltanat taxtiga o'tirar ekan o'zini <SIN SHI XUANDI> yani SIN davlatining birinchi podshosi deb e'lon qiladi. Sin Shi Xuandi shimolda xunlar bilan urushlar olib borib, ularni Xitoy chegarasidan nariga chekinishga majbur qiladi. Sin qo'shinlari Yansizi daryosi quyi qismining janubidagi Yuz podsholigi bilan g'olibona urushlar olib borib, uni ham singa itoat ettirgan. Sin Shi Xuandi mamlakatni birlashtirgach, podsholikni islohatchi Shanyan tuzgan qonon qoydalar bilan idora qilgan. U ham mamlakatni 36 ta viloyatga bo'lib, ularni boshqarishda amaldorlarga suyangan. Eski zadogan asilzodalar esa davlat ishidan chetlashtirilgan. Chunki ular eskilarning jonkuyar tarafdorlari, yangilarning ashadiy dushmani edi. Sin Shi Xuandi buyrug'i bilan yangiliklarni dushmani bo'lgan 460 konfutsiy olimi tiriklayin yerga komilgan. Bunday ishlari xalq omasining keskin noroziligiz sabab bo'lgan. Sin Shu xandi davrida ko'plab islohatlar bo'ldi. Ularga misol qilib yagona qonunlar tizimi Shan Yan asos solgan legalizm falsafasi asosida qonunlar majmuasini joriy etdi. Undan tashqari pul, yozuv, o'lchov birliklarini yaratadi. Sin davrida buun Xitoy bo'ylab yagona tanga pullar, ieroglif yozuvi, vazn va uzunlik o'lchovlari joriy qilindi. bu iqtisodiy integratsiyani kuchaytirdi. Imperiya hududida kata yo'l va kanallar tizimi ishga tushadi ulardan eng mashxuribuyuk kanal qurilishidir. Sin imperiyasini mashhur qilgan yana bir inshot bu buyuk Xitoy devoring qurilishi bo'lgandir. Malumki <Buyuk Xitoy> devorini qurish mil. avv. IV asirga borib taqaladi. Sin Shu Xuandi buyuk devor qurishga alohida ahamiyat bergan hisoblanadi. Solnomachilarning bergan ma'lumotiga qaraganda, devor qurilishiga sarkarda Min Tyan qo'shinlaridan uch yuzming askar jalb qilingan. devor qurilishida ikki milyonga yaqin harbiy askar, qul va mahbuslar, shuningdek oddiy aholidan jami 2300000 kishi qatnashganligini aytib o'tilgan. Devor Lyadon qo'ltig'i qirg'ogidan Shanxayguan shaxridan boshlangan. Sharqiy Xitoyning shimol tomondagitog', tog'

yon bag`irlari, tekisliklari oralab ikki joyda Xuanxe sohillariga kelib to`xtagan.Devor juda ham mustaxkam qurilgan bo`lib bu inshoat hozirgzcha saqlanib turibdi.

Sin imperyasi yemirilishi va tugashi.

Bilamizki Sin imperyasi davrida juda ko`plab islohatlar va o`zgarishlar bo`ladi bular uchun pul kerak hisoblanadi. Bu masalani hal qilish har doyingidek oddiy xalq majburiyatiga tushadi. Soliqlar shavqatsizliklarcha yig`ib olinadi.Va yana bir sababi bu legalistik siyosatning zo`rovonligi xalqni hukumatdan uzoqlashtiradi. Eng asosi sababi bu Sin Shu Xuandi vafotidan keyi uning avlodlari zaif va tajribasizligi bilan davlatni parakonda qiladi.Sin Shu Xuandi mil. avv. 210-yilda vafot etadibirozdan so`ng mil.avv.209-yilda mamlakat hududida qo`zg`olonlar avj oladi.Bunday qo`zg`olonlarga misol qilib Chjou Gao va Lyu Ban boshchiligidagi qo`zgonon imperiya tanazuligz sabab bo`ladi.

Xulosa va munozara

Qadimgi Xitoyda Sin

imperiya chuqur iz qoldirgan imperyalardan biri xisoblanadi. Bu imperiya Xitoyni markazlashgan davlatga aylanishida juda katta o`ringa egadir. Bu imperya davrida Xitoy hududi kengayib zafarli yurishlar soni oshadi. Va buning natijasida Xitoy bilan boshqa davlatlar savdo soiq qila boshlaydi.Savdo yo`lari Xitoyga ko`chadi.Mamlakatda kuchli qo`ruqlov tizimi joriy etiladi bu esa malakatdagi tinchlikni saqlashga katta yordam beradi.

Adabiyotlar ro`yxati:

- 1.Abdujabbor Karimov Qadimgi Sharq Tarixi Toshkent 2016
- 2.D.Urakov,R.Tursunqulov, A.Biykuziyev, B.Xaynazarov Jaxon tarixi Toshkent 2020
- 3.O`zbekiston Milliy ensiklopediyasi.Qin(Sin) sulolasi maqolasi Toshkent 2002
- 4.Sima Qian. Records of the Grand Historian(Shiji) –Beijing 1959
- 5.M.Mahkamov, Xalilov.N, Ergashev SH, Bo`ronov M, Qadimgi Sharq Tarixi Toshkent 2019